BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi

# YOSHLAR OVOZI

Молодежь Узбекистана

№ 3 (16457)
2022-YIL
19-YANVAR,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ
YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU
@YOSHLAROVOZIUZ
@YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## "MENI SEVSANG AGAR, CHIQGIN CHELAKNI KO'TARIB"...








Ammo bizning Yuqorichirchiq tumani, yana ham aniqroq aytsak, Qizilsoy mahallasi qizlari va ayollari uchun suv tashishga chiqish hech ham romantika emas. Qishning qori yo'q, biroq izg'irin kunlarida bu chinakam muammoga aylanadi. Ko'chamizdan o'tgan, ertaklardagidek "bir bor ekan, bir yo'q ekan" degan ta'rifni esga soluvchi quduq suvlari, hatto bir nechta ko'cha naridagi uyda yashovchi oilalar uchun ham birdan-bir obi-hayot manbayi bo'lib qolganiga ancha vaqt bo'lgan.

Davomi 3-sahifada.

UZBEKISTAN

## MILLIY IQTISODIYOTNI MILLIY BRENDLAR SHAKLLANTIRADI

***Jamiyat hayotining barcha jabhalarida yuz berayotgan har bir o'zgarish, amaliyotga tatbiq etilayotgan yangi va zamonaviy loyihalar, islohotlar, manzilli chora-tadbirlarning barchasi, avvalo, inson farovonligi va uning qadr-qimmatini oshirishga qaratilganligi bilan e'tiborga molik.***




Bugun, nafaqat fuqarolarga qulaylik yaratilmoqda, balki xizmat ko'rsatishning soddalashtirilgan, qulay va zamonaviy tizimi hayotga tatbiq qilinmoqda. Raqamli texnologiyalar, elektron xizmatlar, turli innovatsiyalar faqatgina qulaylik va zamonaviylik uchun joriy etilmayapti, balki bu inson omili aralashuvini cheklash, jahon standartlariga yaqinlashish demakdir.

Ayni paytda muhokama etilayotgan Taraqqiyot strategiyasi o'tgan besh yillik Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida yana-da ko'plab o'zgarish va yangilanishlarni o'zida mujassam etadi.

Yangi O'zbekiston strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat etib belgilanmoqda. Erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari asosida rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, sifatli ta'lim-tarbiya, ma'naviy va ma'rifiy sohalardagi islohotlar, Qurolli Kuchlarimiz qudratini yanada oshirish ularda o'z aksini topgan.

Bugun yurtimizda islohotlar "Inson qadri uchun" g'oyasi ostida amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaro o'zgarishlarni avvalo o'z hayotida his etishi lozim.

Davomi 4-sahifada.

SARHISOB

## YOSHLARGA 290 MILLIARD SO'MLIK AMALIY YORDAM KO'RSATILDI

***2021-yil davomida yoshlar siyosati yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.***



Ma'lum qilinishicha, o'tgan yil davomida yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **47 ta** normativ-huquqiy hujjat *(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta farmoni, 10 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 32 ta qaror va farmoyishi)* qabul qilingan. Bu hujjatlar asosida yoshlar uchun joriy etilgan **44 ta** imtiyoz va qulayliklar "**Yoshlar portali**"ga kiritilib, bir qator amaliy natijalarga erishildi.

AOKA binosida o'tkazilgan brifingda ishtirok etgan Yoshlar ishlari agentligi axborot xizmati rahbari Nodir Abduqodirov davlat dasturi, "Yoshlar daftari", "Yoshlar dasturlari" yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishiga zamin yaratganini ta'kidladi.

Davomi 2-sahifada.

COVID-19




***Joriy yil boshida yurtimizda koronavirusning Omicron shtammi aniqlandi.***

Kasallanishlar soni ko'paygani bois yana karantin cheklovlari o'rnatila boshlandi. Ammo o'tgan davr mobaynida ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatdan yo'qotishlar ko'p bo'lganiga qaramay, ayrimlar hamon vaksina olishga befarq qaramoqda. Odamlarda emlanishdan qo'rqish, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan noto'g'ri ma'lumotlarga ishonib, vaksina olishdan bosh tortish holatlari kuzatilmoqda.

Davomi 2-sahifada.

# QACHON EMLANASAN, EY SEN, OLOMON?!

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Poytaxtda viloyatlarga nisbatan emlanish darajasi past. Buning sababi ma'lumotlar bazasi nihoyatda ko'pligi, ular orasida yolg'on xabarlarning ham ko'pligidir. Aniq va to'g'ri ma'lumotning yetishmasligi natijasida turli mish-mishlar ko'payib bormoqda.

Yurtimizga turli mamlakatlardan vaksinalar olib kelindi. Barchasi olimlar tekshiruvidan o'tgan, xavfsiz. Bizda birinchi qo'llanila boshlagan vaksina bu COVID-19 ga qarshi ZF-UZ-VAS2001 vaksinasidir. Bu Xitoy Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti va O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi hamkorligida Anhui Zhifei Longcom Biopharmaceutical kompaniyasi tomonidan ishlab



chiqarilgan, COVID-19 oqsil subbirligining ad'yuvantini o'z ichiga olgan vaksinadir. U rekombinant vaksina bo'lib, dastlabki natijalarga ko'ra, ZF-UZ-VAS2001 o'zbek-xitoy vaksinasining uchala dozasini olgan kishilar organizmida yuqori antitanachalar hosil bo'ladi. O'zbekiston – Xitoy hamkorligida ishlab chiqilgan vaksina virusning hujayraga yopishuvchi reseptor oqsilini gen muhandisligi usulida ko'paytirish orqali olingani, u nafaqat COVID va turdosh betta koronaviruslar, balki o'tkir respirator infeksiya qo'zg'atuvchi SARS va MERS viruslariga ham universal ta'sirga egaligi ma'lum qilingan.

Moderna — Moderna kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan COVID-19ga qarshi vaksina. Spikevax brendi ostida sotiladi. U 18 yoshdan kattalarda koronavirusni yuqtirishdan himoya qilishda qo'llaniladi. U mushak ichiga 29 kunlik interval bilan 0,5 millilitrdan ikki dozada yuborishga mo'ljallangan. Moderna vaksinasidan Kanada, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, Filippin, Janubiy Koreya, Tailand, Buyuk Britaniya, AQSh va yana 53 mamlakatda foydalanishga ruxsat berilgan. 2021-yil 15-martda Moderna kompaniyasi koronavirusga qarshi o'zining ikkinchi vaksinasining birinchi bosqich klinik sinovlarini boshlagan edi.

Pfizer/BioNTech — Germaniyaning BioNTech biotexnologiya kompaniyasi tomonidan Amerikaning Pfizer va Xitoyning Fosun Pharma bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan vaksinadir. Pfizer — BioNTech pandemiyaning dastlabki bosqichlarida Comirnaty savdo belgisi ostida tarqatilgan. 2021-yil BioNTech kompaniyasi amerikalik hamkori Pfizer bilan birgalikda 2022-yilda 3 milliard dozagacha koronavirusga qarshi vaksina ishlab chiqarmoqchi ekanligi aytilgan. Emlash uchun uch hafta oralig'ida ikki doza qabul qilinadi. Vaksina 2020-yil avgust va sentabr oylarida minglab odamlarda sinovdan o'tkazilgan. Sinovlarda jiddiy yon ta'siri qayd etilmagan. Noyabr oyiga kelib, oraliq test tahlili doirasida COVID-19 tashxisi qo'yilgan va ushbu vaksinani qabul qilgan tadqiqot ishtirokchilarida tekshiruv olib borilgan. Unda ikkinchi dozadan keyin yetti kun ichida infeksiyaning oldini olishda 90 foizdan yuqori samaradorlikka erishilgani ma'lum bo'lgan.

Buyuk Britaniyaning sog'liqni saqlash xizmati tomonidan qaysi preparat samarali ekanini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazilgan. Unda ijobiy natija ko'rsatgan vaksinalar qatorida Pfizer ham qayd etilgan. Tadqiqotdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Pfizer vaksinasi koronavirusning nafaqat oddiy, balki xavfli shtamlarini ham zararsizlantira olgan. Isroilning Tel-A-Shomer tibbiyot markazi tadqiqotchilari vaksinani birinchi dozadan keyin 85 foizga samarali deb baholadi. Shuningdek, vaksinani Isroilning Clalit tadqiqot instituti va Ben-Gurion nomidagi universitet olimlari Michigan universiteti hamda Garvard tibbiyot maktabi mutaxassislari bilan birgalikda sinovdan o'tkazgan. Jarayonda taxminan 1,2 million kishi ishtirok etgan. Izlanish paytida tadqiqot mualliflari 16 yosh va undan yuqori bo'lgan, 2020-yil 20-dekabrdan 2021-yil 1-fevralgacha emlangan qariyb 600 ming kishi to'g'risidagi ma'lumotlarni emlanmagan xuddi shu yosh va jinsdagi odamlarning ma'lumotlari bilan taqqoslagan.

Bu kabi ma'lumotlar borgan sari ko'payayotgan bo'lsa-da, aholida hamon ikkilanish yuqori. Shu masalada Turizm va sport vazirligida jurnalist va blogerlar ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda o'rtaga tashlangan asosiy masala aholida vaksinatsiya jarayonlariga ishonch va qiziqishni uyg'otish bo'ldi. Ommada emlanishga ishonchning ortishi uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerakligi haqida mulohazalar, masla-hat va takliflar berildi.

Rivojlanayotgan davlatlar har jabhada, abatta, rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan qiziqadi. Ko'p hollarda bu yaxshi natija bergan. Vaksina olish masalasida ham shunday samarali tajribalar talaygina. Ulardan biri emlash jarayonlarini jamoat joylarida o'tkazishdir. Jamoat joylariga kirishga taqiq qo'yish aholini qaysidir jihatdan vaksina olishga majbur qiladi. Bundan tashqari, barcha xodimlari emlangan savdo komplekslari uchun imtiyozlar yaratish ularni sergak bo'lishga undaydi. Sababi kuchli raqobat har qanday tadbirkorni harakat qilishga undaydi.

Aholida vaksina olishga qiziqishni o'stirish maqsadida endi emlangan fuqarolar bonusli o'yinlar orqali sovg'a yutib olishi mumkin. Bu haqida yig'ilishda aytib o'tildi. Hozir bonusli o'yinlarni tashkil etish tashabbusi yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

**Lobar QODIROVA**



# YOSHLARGA 290 MILLIARD SO'MLIK AMALIY YORDAM KO'RSATILDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Jumladan, o'tgan yilda yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida "Yoshlar balansi" asosida 621 ming 709 nafar yosh "Yoshlar daftari"ga kiritildi. Kasb-hunar o'rgatish, imtiyozli kreditlar, yer maydonlari, subsidiyalar ajratish va ijtimoiy-moddiy qo'llab-quvvatlash natijasida bu yoshlarning **595 ming 970 nafari** *(96 foiz)ning* bandligi ta'minlandi va **25 ming 739 nafar** imkoniyati cheklangan, tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olindi.

Jamg'armalar hisobidan ishsiz yoshlarga asbob-uskuna, mehnat qurollari, urug'lik va ko'chat xarid qilish uchun subsidiyalar ajratish, noturarjoylar ijarasi va boshqa yo'nalishlarda 137 ming yoshga 290 milliard so'm miqdorda amaliy yordam ko'rsatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga yer ajratish tashabbusi bilan ilk marotaba 424 ming nafar yoshga *(shundan, 208 ming nafari "Yoshlar daftari"ga kiritilgan)* 127 ming gektar ekin maydonlari ajratilib, 681 mingga yaqin ish o'rinlari yaratildi.

Yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimli yo'lga qo'yildi. Yil davomida 52 ming nafar yoshlar kasb-hunar va 140 ming nafar yoshlar tadbirkorlikka o'qitildi.

Yoshlar tadbirkorligini mikrokreditlashning yangi tizimi joriy etilib, 132 ming yoshning tadbirkorlik loyihalari uchun 3,3 trillion so'm *(har bir loyihaga o'rta hisobda 25 million so'mdan)* imtiyozli kreditlar ajratish orqali 130 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

"IT" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida 198 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 1,2 million nafardan ortiq yoshlar kompyuter dasturlash asoslariga bepul o'qitilmoqda. Shundan, 534 ming nafari o'qishni muvaffaqiyatli tamomladi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon" tanlovida 300 ming nafar, "Yosh kitobxon oila" tanlovida 10 ming yosh oila ishtirok etdi. Yil davomida 1,2 milliondan ortiq kitob yoshlarga yetkazib berildi.

To'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talaba yoshlar uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilib, bugungi kunga qadar 11 mingga yaqin yoshlarga 100 milliard so'mga yaqin imtiyozli ta'lim kreditlari berildi.

"Talabaga madad" loyihasi doirasida to'lov-kontrakt mablag'ini to'lab berishda amaliy yordam so'rab murojaat qilgan yoshlar soni 20 760 nafarni tashkil etdi. Shundan, 3 017 nafariga to'lov-kontrakt mablag'lari to'lab berildi. Bundan tashqari, "Yoshlar daftari" tizimi orqali 8 259 yoshga 30 milliard so'mdan ortiq mablag' to'lab berildi.

Yoshlarning muammolari, taklif va istaklarini "mahallabay" o'rganish hamda hal etish bo'yicha "Vazir va yoshlar", "Hokim va yoshlar", "Sektor rahbarlari va yoshlar" ochiq muloqotlari tashkil etib borish tizimi yo'lga qo'yildi. O'tgan davr mobaynida jami 1 million yosh bilan 28 ming 197 marotaba ochiq muloqotlar o'tkazildi.

Turkiy tilli davlatlarning yoshlar va sport ishlari vazirlari ishtirokida ilk marotaba Toshkent shahrida "IDEA – Yosh tadbirkorlar forumi" o'tkazildi. Forum yakunida O'zbekistonni 2022-yilda turkiy dunyo yoshlari poytaxti etib belgilash tashabbusi ilgari surildi.

O'tgan yilda 8 ta (AQSh, Germaniya, Turkiya, Rossiya, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston) xorijiy davlatga 13 ta yoshlar delegatsiyalarining tashrifi uyushtirildi. Mamlakatimizga yoshlar masalasi bo'yicha 43 ta tashrif amalga oshirilib, 201 nafar yoshlar delegatsiyalari qabul qilindi.

# "MENI SEVSANG AGAR, CHIQGIN CHELAKNI KO'TARIB"...

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



**Qoracha, ozg'in yuzini ajin qoplab ulgurgan qozoq ayol (mahallamizning ko'pchilik aholisini qardosh millatga mansub oilalar tashkil qiladi) suv chiqmayotganini ko'rib, yig'lagudek ahvolga tushdi. Qo'lida 10 litrlik 4 dona suv idishi (shuncha suvni bir o'zi qanday ko'taradi, hayronman) "uff" torta-torta kechki sovuq tushib ketmasidan tezroq suv topib, uyga borishi kerakligini, choy qaynatish uchun ham bir tomchi suvi qolmaganini aytib "Suv kelib qolarmikin-a?!" deb yuzimga umid bilan qaradi.**

Choy va ovqat, qisqasi iste'mol uchun sho'r ham, shirin ham deb aytib bo'lmaydigan suvdan ertalab hech bo'lmasa, 20 litr tashib olgan kelinlardan xotirjam odam yo'q(!), harqalay bugunga yetgulik suvi bor.

Ayrim oilalar, shu o'rinda biz ham iste'mol uchun bu suvdan foydalanmayotganimizga yaxshiroq va yomonroq bir sabab bor: mahalla boshida maxsus qurilma yordamida qazib chiqarilgan, filtrlangani uchun xalq orasida "filtr suv", "shirin suv" deb nom olgan quduq suvi. Yaxshi tomoni, suv chindan ham shirin, ayniqsa, buyrak kasalliklari bilan og'riganlar va og'rishni istamaganlar uchun chinakam "najot".

Yomon tomoni, quduq joylashgan yer mashina bilan ham, piyoda borishga ham juda noqulay, uzoq, chekka hudud, qishda – loy, yozda – chang. Yana bir jihati – pulli, albatta, maxsus qurilmalar yordamida qazilgan va filtrlanadigan suv boshqacha bo'lishi mumkin emas.

Ammo shu ikkinchi sabab ortidan ko'pchilik suvni "Shuuu yoqqa borib o'tirmay, do'kondan sotib olishni "afzal" ko'radi. Shuning uchun ham tumanning markaziy hududlaridan hisoblanuvchi (masjid, poliklinika, bir nechta oziq-ovqat, qurilish, xo'jalik, kiyim va yana boshqa do'konlar, dorixona, Zooapteka va hokazo borligi sabab) mahallamizdagi do'konlarda nondan keyingi o'rinda suv tez sotiladi va tabiiyki, tugab qoladi. Ichimlik uchun sotib olinganidan keyin, hech bo'lmasa, idish-tovoq, kiyim-kechak, xalq tili bilan aytganda "yuz-qo'l yuvish uchun" sho'r bo'lsa ham "tekin" suvga ehtiyoj paydo bo'ladi.

"Qachon yomg'ir yog'ar ekan?" deb kutib o'tirib ham bo'lmaydi.

Hatto, hovlisidan matorli quduq qazdirib olgan qo'shnilar qatori biz ham chiroq o'chib qolgan vaqtlarda "suv chiqyaptimikin?" deb ko'cha yuzidagi kranga mo'ralab qolamiz, aniqrog'i, majbur bo'lamiz. Bugun ham, dadam ishdan charchab kelgan bo'lishlariga qaramay mashinasida olib keluvchi mahalla boshidagi "filtrli suv"dan yoki singlim ikkimiz do'kondan tashib keluvchi "Biolife"dan idish yuvish uchun ishlatishga "ko'zim qiymadi".



Qo'shiqdagidek, lekin umid bilan chelak ko'tarib darvozadan chiqdim. Kran bo'yida doimgidek mahallaning "BBC opoqilari" qizg'in suhbat qurib turishibdi, "Robiya xolamni jurnalist nevarasi" (ya'ni meni) bergan salomiga alik olishdi va bir necha daqiqa avval jildirab turgan suv hozirgina to'xtab qolganini aytishib, biri suv to'la chelagini ko'tarib uyiga, biri esa bo'sh suv idishini ko'tarib boshqa kranni izlab ketdi.

Bu maqolani yozishga meni majbur qilgan voqea ham shu paytda bo'lib o'tdi.

Qoracha, ozg'in yuzini ajin qoplab ulgurgan qozoq ayol (mahallamizning ko'pchilik aholisini qardosh millatga mansub oilalar tashkil qiladi) suv chiqmayotganini ko'rib, yig'lagudek ahvolga tushdi. Qo'lida 10 litrlik 4 dona suv idishi (shuncha suvni bir o'zi qanday ko'taradi, hayronman) "uff" torta-torta kechki sovuq tushib ketmasidan tezroq suv topib, uyga borishi kerakligini, choy qaynatish uchun ham bir tomchi suvi qolmaganini aytib "Suv kelib qolarmikin-a?!" deb yuzimga umid bilan qaradi. Javob sifatida suv kelguncha bizni uyda kutib turishini taklif qildim, u esa "agar suv bugun kelmay qolsa-chi" deb bundan uch ko'cha naridagi quduqqa borgani ma'qulligini aytib, xayrlashdi. Ozg'in, "chaqib oladigan" sovuq bo'lishiga qaramay yupun kiyingan (tez qaytaman deb o'ylagan, menimcha), ikki qo'lida ikkitadan idish tutgancha yugurgudek bo'lib ketayotgan ayol ko'cha muyilishiga yetib, ko'rinmay qolgunicha ortidan qarab qoldim.

Nimagadir yig'lagim keldi, anchadan beri, birinchi marta, to'yib-to'yib. Agar chiroq kelsa, hovlidagi krandan suv olishim mumkin, juda bo'lmasa do'kondan. Ammo eri ikki yil avval vafot etgan, bir o'g'il va qizi bilan maktab yaqinida ijarada turib, farrosh bo'lib ishlaydigan ayol-chi, u nima qilsin? Unga qanday yordam bera olaman? Qo'ni-qo'shnilar hovlisidagi krandan foydalanishni taklif qilishganida, yo tortinadigan, yo boshqa bir sabab bilan ko'cha yuzidagi kranni ma'qul ko'radigan ayol suv qidirib butun mahalladagi ko'chalarni aylanib chiqishiga kim aybdor?

...Bir muddat avval, necha marta mahalla raisi qabuliga kirib, muammoni aytishga harakat qildim (shu mahalla fuqarosi emas, jurnalist sifatida ham). Muvaffaqiyatli qabullarning birinchi va so'nggisida, qisqa qilib aytsam, avgustda suv kelishi haqidagi xabarni (va'da deyishga asos va hatto hojat ham yo'q) oldim. Ammo... bu gaplar 1 yil, roppa-rosa 5 oy oldin aytilgani va "bir kosa lag'mon"ning hidi kelgani sabab hozir hech qanday qiymati yo'q.

Shunday! Lag'monlarni tajribali "oshpazlar" cho'zaveradi, uni yegan xalq tiqilib qolib, ichish uchun suv izlaydi, lekin hamma suvni "oshpazlar" mahorat bilan o'zlari tayyorlagan ovqatga "ishlatib yuborishgan" bo'ladi. Oqibat, ayollar qo'lida chelak bilan suv izlaydi, topolmasa, "yerni bir tepsa suv chiqadigan" joyda yashashiga qaramay, do'kondan suv sotib oladi va hokazo.

Xullas, shunaqa gaplar.

Balki yig'indi, ayrim "lag'mon cho'zishga usta oshpazlar"ning nazarida "g'irt bekorchi", hamma yerda ham gapirib yursa yarashmaydigan gaplar. Mahallasi hayotda ham qog'ozdagidek "SUVLASHTIRILGAN HUDUD"da yashovchilar va "lag'monchilar" uchun tegishli hamda qiziq bo'lmagan gaplar.

Lekin men sodda bularning e'tiborsiz qolib ketmasligidan doimgidek faqat va faqat umid qilib qolaveraman, nachora?!

**Ziyoda RAHIMBOYEVA,**
**O'zJOKUning 2-bosqich talabasi**

ISLOHOT

# MILLIY IQTISODIYOTNI MILLIY BRENDLAR SHAKLLANTIRADI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.







Joylardagi muammolarni hal etishda mahalliy boshqaruv organlarining roli va mas’uliyatining yanada kuchaytirilishi, buning uchun davlat funksiyalarining katta qismi markazdan quyiga o‘tkazilishi jahon tajribasida ko‘p marta ijobiy samara bergan usullardan biri.

Prezidentimiz olib borayotgan siyosat negizida, ya’ni markazida fuqaro turadi. Respublika, viloyat, tuman va hatto, mahalla ham fuqaro bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydi. Xalq ichiga kiraylik, deyilganda aynan shu masala nazarda tutilgan.

Shu paytgacha mamlakatda “davlat – fuqaro – jamiyat” tamoyiliga amal qilingan bo‘lsa, endilikda “fuqaro – jamiyat – davlat” tamoyili ilgari surilmoqda. Islohotlarning bosh negizida inson va uning qadri turadi. Va bu mezon xalqparvar jamiyat barpo etishning asosiy shartlaridan biri, deb e’tirof etilgan.

### IQTISODIYOTIMIZ ILM VA INNOVATSIYAGA ASOSLANADI

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ixcham, professional, xalqimiz talablariga javob beradigan, adolatli, yuqori natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish muhim vazifamiz bo‘ladi.

Bugun dunyoda hech narsa yangilik emas, dunyo ahlini biror yangilik bilan hayron qoldirib bo‘lmaydi. Ular tan oladigan mahsulot yoki xizmat turini faqat o‘zimiz, o‘z ichki imkoniyat va salohiyatimiz bilan yaratishimiz kerak.

“Xomashyodan – tayyor mahsulotgacha” degan tamoyil asosida sanoat klasterlari tizimining joriy etilishi ilm va innovatsiyalarga asoslangan milliy iqtisodiyotimizning yangi shaklidir. Raqamli iqtisodiyot asosiy drayverga aylantirilsa, o‘z-o‘zidan talablar asosida mamlakatimizning eksport salohiyati ham ko‘tariladi. Buning uchun esa, avvalo, yetishtirilayotgan mahsulotlarimizni uni qadoqlashgacha bo‘lgan davr mobaynida “brend” darajasida taqdim etish lozim.

Biz endi dunyoga xom ashyo emas, tayyor mahsulot, raqobatbardosh mahsulotlar sotadigan Yangi O‘zbekistonga aylanamiz.

Buning uchun muhim sohalardan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarishni sanoat darajasiga olib chiqish talab etiladi. Bugungi harakatlarimiz aynan shunga asoslangandir.

Bugun dunyoda keskin raqobat muhiti hukmronlik qilmoqda. Bu shiddatli va ayovsiz raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olishimiz mumkinligi tan olindi.

### UCHINCHI RENESSANS ASOSI – ILM-MA’RIFATDA

Yangi tizim joriy etishni maqsad qilar ekanmiz, avvalo, uning poydevori qo‘yiladi. Poydevor uchun esa tarixni yaxshi o‘rganishimiz, tahlil qilishimiz, muammolar, yutuqlar va kamchiliklarni hisobga olishimiz va o‘zimizga xos usulni tanlashimiz zarur.




Oliy ta’lim misolida tahlil qilamiz. Bugun talaba kim? Uni auditoriyaga nima bog‘laydi? Ertaga u yaxshi mutaxassis bo‘la oladimi?

Yoshlarni ko‘p kuzataman. Ular bilan uchrashuvlarda bir haqiqatga amin bo‘ldim. Bugun talaba o‘ziga savol bera oladi – nega bu yerdaman, bu yerdan kim bo‘lib chiqaman? U bugun o‘qituvchidan fanni so‘rayapti. O‘qituvchi o‘z fanini yaxshi bilmasa, auditoriyada uzoq qololmasligini tushunyapti. Buni yaxshi o‘zgarish deyish mumkin. Yaqinda 12 nafar yosh o‘qituvchimiz malaka oshirish kursida o‘qidi. Ularning 4 nafari malaka oshiruv ishini muvaffaqiyatli himoya qila olmadi, ya’ni yetarli ball to‘play olmadi. Endi ular yana 1 yil davomida o‘z ustida ishlab, fanni yaxshi o‘zlashtirib, kelgusi o‘quv yilida qayta malaka oshirish kursidan o‘tadi. Ular hozircha o‘qituvchilikdan chetlashtirildi.

Yana bir vaziyat. Yaqinda talabalar bilan bo‘lgan uchrashuvda ular bir o‘qituvchini almashtirishimizni so‘rashdi. O‘qituvchi darslarga ko‘p hollarda tayyorlanmasdan kelar ekan. Bu – yoshlarning qonuniy talabi. Bugun oliy ta’limda kredit-modul tizimini joriy etdik. Bu tizim zamonaviy va samarali hisoblanib, dunyoning eng rivojlangan davlatlarining nufuzli ta’lim muassasalarida xalqaro tajribadan o‘tgan.

Ammo bizda shu tizimni chuqur tushunadigan mutaxassislar yetarlimi? Nima uchun endi biz Buyuk Britaniyada yoki Bolonyada 50 yildan beri amalda bo‘lgan sistemani zamonaviy ekan deya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zimizga joriy etishimiz kerak. 50 yil oldin, Angliya yoki Bolonya bu tizimga o‘tishdan avval ishni nimadan boshlagan edi? Biz avvalo uning tarixini sinchiklab o‘rganishimiz va ishni bosqichma-bosqich boshlashimiz kerak emasmi?!

Ayni kunda tizimda yuz berayotgan chalkashliklar, ziddiyatlar va nosozliklar, qolaversa, noroziliklarni faqat ana shu sabablar bilan izohlash mumkin. Og‘ir bo‘lsa-da, tan olishga majburmiz! Kredit-modul tizimi bizda ham muvaffaqiyat bilan ishlashi uchun avvalo professor-o‘qituvchilarni, mutaxassislarni ana shu tizimga moslashtirish, ularning yillar davomida shakllangan dunyoqarashini o‘zgartirishimiz, dars jarayonlarida o‘tiladigan mavzu emas, balki talaba va uning intilishlari asosiy o‘rin tutishini anglashimiz lozim.

Prezidentimiz o‘z chiqishlarida oliy ta’lim haqida fikr yuritganida, ko‘p bora sifat, qamrab olish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, degan jumlalarni ta’kidlaydi. Bu bejiz emas.

Bizda qabul kvotalari yildan yilga oshirilyapti, yangi oliy ta’lim muassasalari tashkil etilmoqda, xalqaro nufuzli universitetlarning filiallari ochilyapti. Maqsad xalqimizning bilim salohiyatini oshirish, ma’lumotli mutaxassis o‘g‘il-qizlarimizni bir kasbning egasi qilishdan iborat.

Ammo yaxshi ishlar bilan bir qatorda, faqat qog‘ozda bajariladigan ishlarimiz ham borligini tan olaylik. Misol uchun, biror hududda institut yoki universitet tashkil etamiz. Lekin o‘sha hududda mazkur ta’lim muassasasi tayyorlaydigan mutaxassislarga ehtiyoj bormi, professor-o‘qituvchilar yetarlimi, auditoriya bazasi qanday? Ya’ni, moddiy-texnik bazani qaysi manbalar hisobiga shakllantirish haqida keyin o‘ylaymiz. Qog‘ozda barchasi silliq ketaveradi, ammo u yerda tayyorlanadigan mutaxassislar talabga javob beradimi? Auditoriya yetishmasligi yoki o‘qituvchi yo‘qligi bois uyida onlayn ta’lim olgan talaba baribir “diplom” berishadiku, deya hotirjam o‘qiyveradimi?

Xorijda o‘qishga kirishdan ko‘ra, uni bitirib diplom olish murakkab hisoblanadi. O‘qishni bitirish hammaga ham nasib etmaydi. Bizda esa – aksincha. O‘qishga kirish qiyin, ammo kirib olgach, uni bitirib chiqish muammo emas. Yoki mutaxassislarimizni xorijga malaka oshirishga yuboramiz, buning uchun davlatning katta mablag‘i sarflanadi. Ko‘p hollarda o‘sha mutaxassis horijdan o‘rganib kelgan ishini o‘zimizda bajara olmaydi, buning uchun bizda maxsus laboratoriyalar mavjud emas.

Sifat deyilganda ana shu jihatlarga ham e’tibor qaratilishi kerak, deb hisoblaymiz.

### TASHQI SIYOSATIMIZ TENG HUQUQLILIK, O‘ZARO MANFAATLI SHERIKLIKKA ASOSLANGAN

Men olim, pedagog yoki rahbar sifatida siyosatni chuqur tahlil qila olmasman. Ammo fuqaro sifatida Yurtboshimiz ta’kidlagan yana ikki yo‘nalishni strategik holda belgilab olganimizdan mamnunman. Bular yaqin atrofimizdagi bizga qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yo‘lga qo‘yayotganimiz – global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, bu boradagi barcha sa’y-harakatlarni uyg‘unlashtirish lozimligi va bu yo‘lda Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat ertangi kunga ishonchimizni yanada oshiradi.

Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro hamjihatlik, hurmat, yaqin qo‘shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi yangi siyosiy muhitni yarata olganimiz dunyoning boshqa qudratli mamlakatlari oldida qardoshlarimiz bilan maqsadimiz qat’iy, qarashlarimiz mushtarak, taqdirimiz bir ekanligini anglatadi.

Ikkinchi strategik yo‘nalish esa Xitoy, AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi qudratli davlatlar bilan yangi bozorlarni o‘zlashtirish, investitsiya va innovatsiyalarni keng jalb qilish, xalq diplomatiyasi tamoyili asosida ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalaridagi aloqalarni kuchaytirish maqsadida teng huquqli sheriklik amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz ana shunday ulkan o‘zgarishlar arafasida. Bu tub o‘zgarishlar siyosati – xalqparvar siyosat yurtimizda yashovchi har bir fuqaro tomonidan ma’qullanishi shubhasizdir.

Yoshlarimiz va ziyolilar esa, umid qilamizki, xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi bo‘lib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarali tizimga aylanishida hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqadi.

**Xudoynazar YUNUSOV,**
**Samarqand veterinariya meditsinasi instituti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.**

**O‘zA**

УЧЕНИЕ С УВЛЕЧЕНИЕМ

*Уроки военного дела в школе №24 Галляаральского района Джизакской области проходят очень интересно. Ребята увлеченно слушают учителя, стараясь не пропустить ни слова. Молодежь знакомится не только с основами военного дела, но и с тем, как развивались Вооруженные Силы страны за годы независимости, где и как готовят кадры для армии сегодня.*



# Хотят стать военными

Команда школы – постоянный участник военно-спортивной игры «Бургутлар», где часто занимает призовые места. Ребята успешно выступили на областном смотре, показав не только выносливость и силу, но и глубокие знания. Среди заданий – оказание первой медицинской помощи раненым, сборка автомата, стрельба по мишеням, подтягивание на турнике, бег на 1,5 километра. Отлично показали себя Бунёд Абдуганиев, Хаётжон Худойкулов, Жасур Сайдуллаев, Алишер Хамдамов и другие представители школы.

Учащихся связывает давняя дружба с военнослужащими, они частые гости воинских частей. Недавно состоялась встреча с лейтенантами Зарнигар Абдуганиевой и Маруфом Хамрокуловым, рядовым Абдулазизом Абдурашидовым. Защитники Родины рассказали, какими стали



Вооруженные Силы страны за годы независимости.

Ребята вместе с наставником создали в школе уголок «О героизме отцов – потомкам». Здесь собраны фотографии участника Второй мировой войны Атабая Аманова, запечатлевшие ветерана с молодежью. Герой-фронтовик живет в кишлаке Мирзабулак. Его хорошо знает не одно поколение учеников школы №24, где аксакал часто бывал на мероприятиях. Сейчас Атабаю-бобо 101 год. Ему сложно приходить в учебное заведение, поэтому ребята и педагоги часто навещают его (как и жители ближайших кишлаков). Поздравляют с праздниками, внимательно слушают воспоминания и наставления ветерана.

– Заканчивается первое полугодие, – говорит директор школы Асад Абдушукуров. – Ученики сдают зачеты по военной подготовке. Приятно видеть, как выросли и возмужали наши старшеклассники, как уверенно справляются со спортивными нормативами. Некоторые ребята уже определились с выбором профессии – хотят стать офицерами. Причем этот выбор они сделали осознанно. Помогли занятия по военному делу.

**Саида УМАРОВА**

СЛУЖУ ОТЧИЗНЕ!

# Чеканя шаг





*В Ташкенте состоялся военно-патриотический парад в честь 30-летия Вооруженных Сил Республики Узбекистан и Дня защитников Родины.*

В торжественном марше приняли участие военнослужащие министерств и ведомств системы Вооруженных Сил. Маршрут протяженностью 3400 метров пролегал по проспекту Навои, улицам Шарафа Рашидова и Ислама Каримова.

Участников парада перед Дворцом искусств «Дружба народов» встретили их родители и дети, представители широкой общественности. Здесь же прошла выставка военной техники. Среди экспонатов – отечественные бронемашины Qalqon и Aksum, российские бронеавтомобили семейства «Тайфун», БТРы, турецкие Ejder, артиллерийские установки «Град», а также зенитные установки. Представлена спецтехника МЧС, пожарной службы, Погранвойск СГБ.

Парад завершился праздничным концертом с участием военных оркестров, военных ансамблей и артистов.

**Ольга ЛИДИНА**





# Новости

## Профессионалов будет больше

***Центр подготовки экипажей танковых и боевых машин, созданный при Мубарекском учебном полигоне Юго-Западного особого военного округа, принял первых курсантов.***



На торжественное открытие приглашены командование округа, военнослужащие, молодежь и аксакалы. Выступившие поздравили всех с 30-летием создания Вооруженных Сил Республики Узбекистан и рассказали об огромном внимании государства к военнослужащим.

Гостей ознакомили с условиями, созданными на полигоне, и учебным процессом. Здесь есть общежитие, столовая, библиотека и аудитории. Преподают высококвалифицированные офицеры. Продуман содержательный досуг курсантов.

## На старт, внимание, марш!

***В Ташкенте прошел 10-километровый забег «Я победил», посвященный 30-летию Вооруженных Сил Республики Узбекистан.***



В марафоне приняли участие любительские команды силовых структур и обычные граждане. Забег стартовал с площади Дружбы народов и продолжился по улицам Фурката, Бешёгоч, Ислама Каримова, проспекту Амира Темура и кольцевой вокруг памятника Амиру Темуру.

Первым и вторым к финишу прибыли представители Министерства обороны младшие сержанты Шохрух Давлатов и Евгений Фадеев.

В общекомандном зачете абсолютную победу одержали спортсмены Минобороны, второй стала сборная Национальной гвардии, третье место у команды Службы государственной охраны Президента.

## Бесстрашные сыны Родины

***В Навоийской области состоялся фестиваль «Военный патриотизм», посвященный Дню защитников Родины.***



Проведены культурно-просветительские мероприятия «Национальная армия – наша национальная гордость». В целях поддержки интереса молодежи к военной профессии продемонстрированы показательные выступления специальных подразделений Управления внутренних дел, Главного управления Национальной гвардии по Навоийской области и воинских частей, дислоцирующихся в этом регионе.

Также организованы состязания по шахматам, стрельбе из лука, перетягиванию каната, поднятию гирь. Победители и призеры награждены дипломами и памятными подарками. Фестиваль завершился концертной программой на военно-патриотическую тему.

## Увидеть своими глазами

***Для учащихся Президентской школы города Гулистана Сырдарьинской области организована экскурсия «Мой день в воинской части».***



Сначала ребята побывали на «Площадке безопасности дорожного движения» вместе с сотрудниками УБДД Сырдарьинской области. Специалисты ознакомили школьников с ПДД.

В резервном батальоне призывников, расположенном в Музрабатском районе, мальчики и девочки посетили площадки для проведения военных занятий, а также спортплощадки, залы для комплексных упражнений. Понаблюдали за проведением полевых занятий, приняли участие в духовно-просветительских мероприятиях и посмотрели показательные выступления военнослужащих.

# КУЛЬТ PRO СВЕТ

## Творчество без границ

***В сентябре 2022 года в Ташкенте и Бухаре пройдет литературный фестиваль «На Великом шелковом пути».***



Участниками станут иностранные писатели, создавшие произведения по истории и культуре Центральной Азии, издатели, литературные агенты, а также представители нашей республики. Ожидается проведение более 20 мероприятий – дебатов, презентаций новых книг, семинаров на актуальные темы. Среди докладчиков – известные ученые-историки Уильям Далримпл, Питер Франкопан, автор книг об Узбекистане Кэролайн Иден.

Фестиваль будет проводиться ежегодно в одном из государств, расположенных на Великом шелковом пути. Узбекистан станет первой страной, которая примет проект.

## Феномен Сиднея Джексона

***Состоялась премьера фильма, посвященного легендарному узбекско-американскому тренеру, основателю бокса в Узбекистане.***



Новая документальная лента «Феномен Сиднея Джексона» снята в ташкентской киностудии «Shayxontohur film» творческой группой во главе с автором сценария и продюсером картины Борисом Бабаевым.

История жизни Сиднея Джексона – яркий пример самоотверженности и преданности любимому делу. Постоянно проживая в Ташкенте в суровые военные годы, он смог создать собственную школу бокса, которая действует по сей день и вырастила немало прославленных спортсменов.

О жизни и деятельности легендарного тренера в фильме рассказывают его дочь, ныне живущая в Ташкенте Паина Джексон, ученики Сиднея Джексона и многие другие.

## Остановись, мгновенье!

***В Ташкентском доме фотографии организована отчетная совместная выставка членов секции фотохудожников Творческого союза художников Узбекистана и фотографов-любителей.***



Выставка стала хорошей традицией и проводится уже в пятый раз. Цель – не только сохранить преемственность художественной фотографии, создать возможности для взаимодействия, обмена опытом, дискуссий среди художников, но и открыть новые имена.

Шестьдесят участников представили 350 фотографий. Профессиональные снимки, отличающиеся сложностью художественно-идейного и композиционно-пластического решений, успешно дополняются работами любителей – смелыми и неординарными.

## «На земле Заратуштры»

***Литературный альманах под таким названием издан в Германии.***



Книга вышла в городе Хехинген под редакцией Лады Баумгартен. В сборник включены произведения членов Союза писателей Узбекистана Рисолат Хайдаровой, Галины Долгой, Мухаббат Юлдашевой, Николая Ильина.

Альманах состоит из произведений победителей и членов жюри двух международных литературных конкурсов «На земле Заратуштры» и «Восток – дело тонкое». Их участниками стали писатели, проживающие в Узбекистане, Беларуси, Бельгии, Германии, Литве, Израиле. Главное требование к работам – максимальное раскрытие красоты восточных традиций и духовного мира его народов.

НАСЛЕДИЕ

# ПРИМЕРЯЕМ УКРАШЕНИЯ

**Изящные серьги, диадемы, броши, ожерелья – руки Хикматхон Гиясовой творят настоящие чудеса. Ее изделия в национальном стиле пользуются спросом не только в родном Коканде, но и в Ташкенте.**



Мастерица регулярно участвует в ярмарках, выставках хендмейда. Сейчас готовится ко II международному фестивалю ремесленничества, который пройдет в Коканде в сентябре.

– Особенно люблю создавать диадемы и другие головные украшения, – объясняет Х.Гиясова. – Раньше они выполняли функцию завесы, оберега, а также служили знаками, по которым определялись социальный статус и возраст женщины. То есть это был своего рода паспорт.

Хикматхон не только создает ювелирные чудеса, но и щедро делится знаниями. Ее ученицами уже стали десять девушек. Для них это возможность освоить новое направление деятельности и начать собственное дело. Как говорится, и красиво, и полезно.

**Лилия РУСАНОВА**



# UZНАЙ!

*Узбекистан – единственная в мире страна, названия всех соседей которой оканчиваются на «стан». А также это единственное государство в Центральной Азии, граничащее со всеми странами региона.*






*Недалеко от Бухары создан единственный в мире питомник для разведения джейранов (вид мелкой антилопы). Два десятилетия назад в нем было всего около 40 особей, а сейчас насчитывается более 700.*

*В экоцентре «Джейран» обитают и другие редкие животные – куланы, лошади Пржевальского, бухарские горные бараны, винторогие козлы.*

*До XVII века медицинский трактат Авиценны «Канон врачебной науки» изучался во всех университетах Европы.*







*Механизм часов Ташкентских курантов ранее располагался в городской ратуше немецкого Алленштайна. Его после войны привез в Узбекистан Ишия Айзенштейн, часовщик и почетный гражданин Ташкента. Впервые куранты зазвонили в 1947 году.*

*В 2023 году Самарканд станет мировой туристической столицей. Здесь пройдет 25-я сессия Генеральной ассамблеи Всемирной туристской организации (ЮНВТО). Это одно из главных международных событий в сфере индустрии гостеприимства.*



MUNOSABAT

# NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMI YARATILDI

***O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bugun respublikamizda 800 mingga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar istiqomat qilmoqda. Shu jihatdan mamlakatimizda so'nggi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilib, ular uchun har tomonlama imkoniyat yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi.***



"Inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida olib borilayotgan barcha islohotlar markazida "inson qadri va uning manfaatlari" degan hayotbaxsh g'oya namoyon bo'ladi. Shunga asosan, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha yangi bir huquqiy tizim yaratildi. Unga ko'ra, nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlari belgilandi. Nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy himoyasi bu tibbiyot muammosi deb emas, balki, birinchi navbatda, inson huquqlari masalasi sifatida ta'riflandi. Jumladan, respublikamiz aholisi tarkibini 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar tashkil etishini inobatga olsak, ularning bilim olishi, kasb-hunar egallashi va mustaqil hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun imtiyozlar yaratildi. Ular quyidagi huquqiy hujjatlarda belgilab berildi:

**Birinchidan,** O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 1-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonning o'ziga xosligi shundaki, "nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash" belgilab qo'yildi. Qolaversa, farmon bilan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturda 2018/2019-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ravishda ikki foizli kvota ajratish tartibi joriy etildi. Bu kvotalarni oliy ta'lim muassasalari tomonidan shakllantirish vazifasi belgilandi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha kvota asosida o'qishga qabul qilish toifasiga umumiy o'rta ta'lim yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjatga hamda I va II guruh nogironligi to'g'risida ma'lumotnomaga ega shaxslar kirishi belgilandi.

**Ikkinchidan,** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi Qarori bilan "Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizomda oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha davlat granti kvotalari asosida o'qishga qabul qilish tartibi va Oliy ta'lim muassasalariga nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'shimcha kvota asosida o'qishga qabul qilish toifasi belgilandi. Unga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjatga hamda I va II guruh nogironligi to'g'risida belgilangan tartibda berilgan shakldagi ma'lumotnomaga ega nogironlar tarkibi belgilandi.

**Uchinchidan,** 2020-yil 15-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Bu qonun nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishda muhim huquqiy asos bo'ldi. Qolaversa, mazkur qonundagi asosiy yangilik — bu ilgari O'zbekiston qonunchiligida bo'lmagan "nogironlik belgisiga ko'ra kamsitish" tushunchasi kiritildi. Shuningdek, mazkur qonunning 6-bobida nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi, ushbu shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish belgilangan. Jumladan, qonunning 38-moddasida "Nogironligi bo'lgan shaxslar barcha darajalardagi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish va o'z qobiliyatini yanada to'liqroq rivojlantirish uchun butun umri davomida ta'lim olish hamda jamiyat va davlat hayotida ishtirok etish huquqiga ega" ekanligi belgilab qo'yilgan.

**To'rtinchidan,** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda 2021-yil 23-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlarning amaliy ahamiyati shundaki, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang ravishda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularni mehnat faoliyatiga keng jalb qilish orqali hayot sifati va darajasini oshirish hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish mexanizmlari belgilab berilgan.

**Usmonjon BO'TAYEV,**
**"Istiqbol" tadqiqot markazi NNT rahbari**

SENING TENGDOSHING



# YUKSALISH OYLIGI

**2021-yil iyun-dekabr oylari Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabi tomonidan "Yuksalish oyligi" deb e'lon qilingan edi. O'tgan vaqt davomida har oy bir-biridan qiziqarli, noan'anaviy onlayn ko'rik-tanlovlar tashkil qilindi.**

Bu tanlovlarda Surxondaryo viloyati, shahar va tumanlardagi "Barkamol avlod" bolalar maktabi to'garak rahbarlari hamda a'zolari ham faol ishtirok etdi.

Jumladan, 12-Mehribonlik uyining "Gilamdo'zlik" to'garagi rahbari Nargiza Boboyeva va to'garak a'zosi Madina Salimova "Yuksalish oyligi" doirasida tashkil etilgan "Mustaqillik ijodkorlari" onlayn festivalining respublika bosqichida "Gilamdo'zlik" yo'nalishida 1-o'rinni, Boysun tumani "Barkamol avlod" bolalar maktabi to'garak rahbari Dilnoza Ahmatova va to'garak a'zosi Shoira Ashurqulova shu tanlovning respublika bosqichida "Do'ppido'zlik" yo'nalishida 2-o'rinni egalladi.

Men ham "Ijodkor tilshunos" onlayn ko'rik-tanlovining respublika bosqichida "Rus tili" yo'nalishida 3-o'rinni qo'lga kiritdim.

"Yuksalish oyligi"da Qiziriq, Oltinsoy, Denov, Sho'rchi tumanlari va Termiz shahri "Barkamol avlod" bolalar maktabi to'garak a'zolari ham faol ishtirok etdi.

G'olib va faol ishtirokchilar Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabining diplom, sertifikat hamda noutbuk, uyali telefon, smart soat kabi qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Diplom va sovg'alarni viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Zokirjon O'tayev topshirdi.

Ushbu qiziqarli ko'rik-tanlov va rag'batdan barchamiz motivatsiya oldik. Tadbir tashkilotchilariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Joriy yilda ham tashkilotchilardan publitsistika, telejurnalistika, milliy urf-odat va qadriyatlarimiz, milliy kuylarimizni targ'ib etuvchi tanlovlarni kutib qolamiz.

**Yulduz ERGASHEVA,**
**Viloyat "Barkamol avlod" bolalar maktabining "Yosh jurnalist va notiq" to'garagi a'zosi, "Ijodkor tilshunos" onlayn ko'rik-tanlovi g'olibi**

# Komiljon TO'XTAYEV: "PEKIN OLIMPIADASI MENGA IKKI KARRA MAS'ULIYAT YUKLAYDI"

***Joriy yilning 4-20-fevral kunlari Xitoy poytaxti Pekinda XXIV qishki olimpiya o'yinlari o'tkaziladi.***

***Dunyoning 100 ga yaqin davlatidan 4 ming nafardan ziyod sportchi qatnashadigan olimpiya o'yinlarining tog' chang'isi bahslarida hamyurtimiz Komiljon To'xtayev O'zbekiston sharafini himoya qilish uchun hozirlik ko'rmoqda.***




Ayni kunlarda Italiyadagi "Kronplatz Racing Center" majmuasida tayyorgarlik mashg'ulotlarini olib borayotgan Komiljon bilan Pekin bahslari oldidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlar, uning katta sportga kirib kelish jarayonlari xususida suhbatlashdik.

**– Pekindagi olimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik yagona sportchi sifatida ishtirok etasiz. Musobaqa murosasiz o'tishi tabiiy. Hozirdan natijalar xususida so'z yuritish biroz g'alati. Lekin ko'zlangan maqsad va rejalar bor. Shunday emasmi?**

– Albatta, har bir sportchi katta maqsadlarni ko'zlaydi. Men ham oldimga ulug' maqsadlarni qo'yganman. Lekin bilasizmi, tog' chang'i sporti Yevropa va Amerika sportchilarining, yana bir qator mamlakat vakillarining milliy sport turi hisoblanadi. Ular deyarli yil-o'n ikki oy tog' chang'isi bilan mashg'ul bo'lishadi. Shunday bo'lsa-da, Pekin olimpiadasida munosib qatnashishni rejalashtirganman. Qolaversa, bu galgi qishki olimpiya o'yinlarida yagona sportchi bo'lganligim ham menga ikki karra mas'uliyat yuklaydiki, unda munosib qatnashish uchun diqqat-e'tiborimni mashg'ulotlarga qaratganman.

**– Bu siz uchun ikkinchi Olimpiada. 2018-yili Janubiy Koreyada o'tgan olimpiya o'yinlarida ilk bor qatnashib, 52-o'rin bilan kifoyalangan edingiz.**

– Hayotimdagi birinchi olimpiya o'yinlari bo'lgan bu musobaqa. Juda hayajonlanganman. Olimpiada har qanday chempionat va musobaqadan tubdan farq qilarkan. Tajribasizligim, yoshligim pand bergan. Biroz xatoliklarga yo'l qo'yganman. Shunday bo'lsa-da, yuzdan ziyod mamlakat vakillari orasida 52-o'rinni egalladim.

**– Tog' chang'isi bilan qachondan beri shug'ullanasiz?**

– Sportchilar oilasida tug'ilganman. Ikki yoshimdan boshlab qish paytlari tog' chang'isida uchardim. Toshkent viloyatining Yangiobod shaharchasida katta bo'lganman. Dadam Ali To'xtayev ham tog' chang'isi bilan shug'ullangan. Sobiq Ittifoq musobaqalarida qatnashgan. Xalqaro toifadagi sportchi hisoblanadi.

**– Boshqa sport turlariga qiziqmaganmisiz?**

– Qiziqqanman. Bir muddat dzyudo bilan shug'ullanganman. Keyinchalik tog' turizmi, qoyani zabt etish bilan mashg'ul bo'lganman. Lekin bularning barchasi qiziqishim va xobbim edi.

**– Birinchi murabbiyingiz va ilk xalqaro musobaqadagi yutug'ingiz qayerdan boshlangan?**

– Birinchi murabbiyim, albatta, dadam. Keyin katta tajribaga ega, o'nlab chempionlar ustozi bo'lgan Yuriy Xlistunov mashg'ulotlarida tog' chang'isining dastlabki mashqlarini bajardim. Undan so'ng rossiyalik Yan Ivanov qo'l ostida tog' chang'isi sirlarini o'rgandim. Ayniqsa, dadamning moliyaviy ko'magi bilan fransiyalik Kristof Mataze qo'l ostidagi mashg'ulotlarim musobaqalarda munosib ishtirok etishimga olib keldi.

2017-yildan O'zbekistonda yengil atletika va tog' chang'isi bo'yicha tajribali murabbiy Ivan Vakulenkoning jismoniy mashqlarida qatnashdim. Aynan shu murabbiy boshchiligida katta hajmdagi chiniqish dasturlarida ishtirok etganim professional harakatlarimni me'yoriga yetkazishga xizmat qildi, deb hisoblayman. Hozirda uch yildan beri "Kronplatz" jamoasidaman.

**– Olimpiya o'yinlarida tog' chang'isining qaysi yo'nalishlarida qatnashasiz?**

– Pekin Olimpiadasida ikki yo'nalishda qatnashaman. Ya'ni, gigant slalom va slalom bahslarida.

**– Olimpiada dasturi bilan tanishmisiz, musobaqalar aynan qaysi kunlari o'tkaziladi?**

– Hozirda asosiy e'tiborni mashg'ulotlarga qaratganligim uchun Olimpiada dasturiga qarashga vaqtim bo'lgani yo'q. Lekin bir narsani aniq aytishim mumkin. Olimpiadadagi o'zim ishtirokimdagi musobaqalar 14-16-fevral kunlari tashkil etiladi.

**– Olimpiadadagi asosiy raqiblaringiz kimlar?**

– Albatta, Osiyo sportchilari. Olimpiya dasturiga binoan oldin qit'a sportchilarini mag'lub etish kerak. Hozirda Turkiya, Koreya, Eron, Qozog'iston sportchilari qishki Olimpiadaga qattiq tayyorgarlik ko'rmoqda. Undan so'ng Yevropaning gigantlari bilan ro'baro' kelaman. Bu juda murakkab masala. Aytganimdek, ular uchun tog' chang'isi milliy sport turidek gap.

**– Italiyadagi mashg'ulotlar qanday kechmoqda?**

– Murabbiyim Mattia Ganessi bilan har kuni ikki mahaldan chuqurlashtirilgan mashg'ulotlarni olib boryapmiz. Aytishim kerakki, davlatimiz tomonidan o'quv-mashg'ulot yig'inlarini yuqori darajada o'tkazishimiz uchun barcha shart-sharoit yaratib berilgan. Keyin kunora Bekzod Yakubov rahbarligidagi O'zbekiston tog'-chang'i sport federatsiyasi mutaxassislari bilan jismoniy-ruhiy tayyorgarligim, mashqlarning texnik-taktik tomonlari haqida suhbatlashib turibman. Xalqimiz, davlatimiz ishonchini oqlab, o'zbekistonlik sport ishqibozlarini xursand qilish uchun bor kuch-g'ayratimni sarflayman. Muhimi, Pekin tog' chang'i maydonlarida omad biz tarafda bo'lsa bas.

**– O'zbekistonlik sport ixlosmandlari sizning Olimpiadadagi ishtirokingizni intiqlik bilan kuzatib borishadi. Ularga tilaklaringiz.**

– Sportchining har qanday musobaqada munosib qatnashishi kayfiyatga va qo'llab-quvvatlashga bog'liq. O'ylaymanki, hamyurtlarimizning xayrixohligi yangi g'alabalar sari ilhomlantiradi. Bundan juda xursandman. Harakatlaring, intilishlaring ko'pchilikning e'tiborida ekanligini his etsang, bundan ortiq baxt yo'q, deb hisoblayman.

**O'zA muxbiri**
**To'lqin RO'ZIYEV**
**suhbatlashdi.**

**JARAYON**

# Mamlakatimizda ilk bor o'tkazilmoqda

***Jahon tajribasida rivojlangan mamlakatlarda tez-tez aholini ro'yxatga olish ishlari o'tkazib turiladi. BMTning 2015-yil 10-iyundagi "2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar" rezolyutsiyasi ham qabul qilingan. Shunga asosan, BMTga a'zo davlatlar aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazishi belgilab qo'yilgan. Ayni paytda MDH mamlakatlarida bu jarayonga tayyorgarlik boshlangan.***

Shu o'rinda bu nega kerak, degan savol tug'iladi. Aholini ro'yxatga olish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash, oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot tarzida foydalaniladi. Aholi sonini ishonchli hisoblash bo'yicha rasmiy statistika tizimida asosiy rol o'naydi. Bundan tashqari, bu jarayon aholining ijtimoiy qatlamini o'rganishga ham yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida jamiyatning qaysi bo'g'inida muammo bor va uni qanday yechish mumkinligini ham ko'rsatib beradi.

Ammo bu jarayon yurtimizda hali biror marta o'tkazilmagan. Bunday sanoq so'nggi bor 1989-yilda o'tkazilgan edi. Holbuki, xalqaro tajribadan ma'lumki, ko'pgina mamlakatlarda aholini ro'yxatga olish tadbiri kamida har o'n yilda bir marotaba tashkillashtiriladi. Respublikamizda ham endi shunday muhim jarayon yo'lga qo'yiladi. Bu borada davlatimiz rahbarining 2019-yil 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillikdan so'ng respublikamizda aholini ro'yxatga olish tadbiri birinchi marta 2023-yilda bo'lib o'tadi va har 10 yilda amalga oshiriladi. Aholini ro'yxatga olishda ishtirok etish – mamlakatning kelajakdagi rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish demakdir.

**Bobur MEYLIYEV,**
**Yakkasaroy tumani statistika bo'limi boshlig'i**

MUTOLAA

# “Muallaq qolsa kimdir, yer turib, osmon turib”

***Xurshid Do‘stmuhammadning o‘tgan asr oxirida yaratilgan “Bozor” romani o‘zbek romanchiligida alohida o‘rin egallaydi. Uni o‘qish jarayonida asar qahramonlari bilan birgalikda ma’naviy-ruhiy savollarga javob izlaysiz. Asarda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish jarayoni oddiy inson hayotiga, psixologik olamiga, qismati, ong-u shuuriga qanday ta’sir qilgani ramziy obrazlar, metaforalar orqali yoritib berilgan.***




Roman bosh qahramoni Fozilbek o‘zini savollar girdobiga otadi, oddiy insonlardek yashashga shunchaki rozi bo‘lmaydi, hayotdan, ramziy ma’noda bozordan o‘zini izlaydi, hamma kabi taqdir nog‘orasiga o‘ynashga vijdoni yo‘l qo‘ymaydi.




Barchamiz ehtiyojlarimizni bozor orqali qondirishimiz mumkin. Asarda aytilganidek, “Bozor odamlar bilan emas, ularning nafsi bilan til topishgan”. Bozor siz-u biz uchun shunchaki bir kunlik “karvonsaroy” bo‘lishi mumkin, ammo bozorboshi oilasi uchun u yer xobgoh kabidir: issig‘i-yu sovug‘i, yaxshi-yomoniga ular javobgar. Bozorboshi Qosimbek oilasida tug‘ilgan Fozilbek esa ota-bobolaridan, ajdodlaridan farqli o‘laroq bozor kishisi emas, u “Shuur” shirkati “jonkuyari” edi. Uning o‘z olami, o‘z dunyosi, “bozor” deb atalmish hayotda o‘z “savdo rastasi” bor. Romanda bu otasi tilidan shunday e’tirof etilgan: “Rahmatli onang dono ayol edi, bozorning toleyiga sendek fozil o‘g‘ilni tug‘ib berdi... Qo‘lingni pulga urmading, bozor mashmashalariga aylanishmading, illo bozorni sendek tushunish boshqa, bunaqasi kam”. Ha, haqiqatan, asar qahramoni Fozilbekda “ta’ma yo‘q, nafs yo‘q” edi. Buni asar ibtidosidan intihosiga qadar sezish mumkin.

Romanda ramziy ishoralar juda ko‘p — majozlar asosiga qurilgan, deb ham bemalol ayta olamiz. Masalan, otning xandaqqa tushib ketishi, timda maxluqning paydo bo‘lishi, aristonning qamoqdan qochishi, bozorga sichqon oralashi, Naynov zakunchining o‘lim sabablari tekshiruvi, janozaning kechiktirilishi, nojins, yo‘qolgan kampir, choyxona, otaning o‘limi va hokazolar.

Fozilbek bu muammolarga yechim izlar ekan, suhbatdoshlari bilan uning o‘rtasida osmon bilan yercha farq borligini sezadi. Va “Nega?” degan savolni o‘rtaga tashlaydi. O‘zi yecholmagan bu muammolarning kaliti otasi, akasi, Shomirza kabi rastaboshilarida bor ekanmi, deya o‘ylaydi, so‘ng xayollar so‘qmog‘i hamma tilidan qo‘ymaydigan Choyxonaga boshlaydi. Hatto xonanishin qilib olgan otasi bilan bo‘lgan quyidagi suhbatda ham Fozilbek otasining so‘zlariga ko‘ndalang qilib shu ramzni qo‘yadi:

“Shomirza akang pultopar, zo‘ravon... Bozor bamisoli bir jondor. Ko‘ngli, fe’l-atvori, nafsoniyati, injiqligi bor, tiliga tushunsang – izmingga yuradi, tushunmasang, ustiga-ustak, zo‘ravonlik qilaversang – shaytoni ko‘payadi. Bozorning shaytoniga bas keladigan banda yo‘q. Bo‘lsayam...

– CHOYXONA-CHI?..”

Izdihom tilga oluvchi, hamma muammolar yechimidek ko‘rinuvchi “Choyxona” nimaning ramzi bo‘lishi mumkin?

Nega Fozilbekka otasi Choyxonadan uzoq yur, deya tayinlaydi, nega o‘g‘li “Otam Choyxonani biladimi, akamchi?”, deya gumonlar bilan qaraydi?

Hamma “ishongan” Choyxona qanday joy?

Qosimbek bozorboshi nega choyxonalarning hammasi bir go‘rligini aytadi? Aslida-chi?

Bu kabi savollarga romanni mutolaa qilish chog‘ida javob topgandek bo‘lasiz.

Fozilbek baribir ko‘rishni dilga tuyib yurgan Choyxonaga yo‘l oladi. Tashqi tarafdan sirli va mahobatli binodek, zinalarini ichida sanaydi, yigirma bitta ekan (XXI asrga ishora). Choyxonada begona yo‘q, hamma unga tanish, hamma ko‘ziga issiq: tilanchilar, pattachilar, dallollar, tarozibonlar, rastaboshilar va nihoyat “Ajabzotlar” so‘risiga duch keldi. Bozordagi nohaqliklar-u hiyla-nayranglardan bezor bo‘lgan Fozilbekning panohi Choyxona bo‘lishi mumkindek edi, ammo o‘ylagani kabi bo‘lmadi. Dastlab “Tilanchi xalqining tanishi bo‘lmaydi”, deb parvo qilmadi-ku, ammo rastaboshilar so‘risida anchagina muztar bo‘lib qoldi: “Fozilbek rastaboshilar so‘risini ko‘rdi, hayrat va havasda qadrdon og‘ainidek rastaboshilarni zimdan kuzatdi, ularga nomma-nom salom berdi, hammalari quyuq alik olishdi, lekin “Qani, bu yoqqa” deb iltifot ko‘rsatish birortasining xayoliga kelmadi...” Bu o‘rinda nafs yo‘lida do‘st o‘z qadrdoni uchun begonaligiga ishora qilinadi. Fozilbek bularning barchasiga ko‘z yuma oldi, lekin u “Muallaq so‘ri”ni ko‘rib chinakamiga hayratga tushdi:

“Biroq Fozilbekning hamma ko‘rganlari ham bir bo‘ldi-yu, keyin ko‘rgani ham bir bo‘ldi: oltindan quyilgan temir so‘ri ariqning eng keng yeriga shu qadar ustalik bilan o‘rnatilgan ediki, Fozilbek uning oyoqlari yerga tekkan joyini topolmadi.



“Muallaq so‘ri” deb yubordi ovoz chiqarib”.

Muallaqlik... To‘ra Sulaymon o‘zining “Armon” she’rida: “Muallaq qolsa kimdir, yer turib, osmon turib” deya yozadi. “Muallaq so‘ri” ham beixtiyor shu misralarni yodga soladi. Zamindan oyog‘i uzilgan – kibr zabtiga olib xalqdan uzoqlashish ikki asarda ham bo‘y ko‘rsatgan. To‘ra Sulaymon ham, Xurshid Do‘stmuhammad ham odam bolasi ikki dunyo orasida muallaq qolishini kibrdan deb biladi, hamda bunday bo‘lmasligi uchun Yerga – o‘zi singari odamlarga va osmonga – o‘zini yaratgan Qudratga suyanmog‘i lozimligini shu orqali ko‘rsatib beradi.

Xo‘sh, Choyxona ahli nima bilan mashg‘ul, ular qanday kelajak uchun rejalar tuzmoqda? Bu hol asarda shunday tasvirlangan:

“Birinchi ajabzot bir kaft yong‘oqni qayrag‘och ostiga qarab irg‘itdi.

– Soqqa tashlash! – deb yubordi Fozilbek. Haqiqatan ham, Fozilbek bolalik kezlari tengqurlari bilan devor yo daraxt poyida ikki hovuch tuproq qazib, chuqurcha kavlashar va unga turli masofadan turib yong‘oq irg‘itib, chuqurchani mo‘ljalga olishar edi.

– ...Nima, shu-unday kap-katta, salobatidan uncha-muncha qoramol hurkib qochadigan ajabzotlar yong‘oq o‘ynarmidi?! Fozilbek hayrat-u taajjubiga javob topib ulgurmay ko‘z o‘ngida yuz bergan hodisadan battar aqli shoshdi: Birinchi ajabzot irg‘itgan yong‘oqdan ikkitasi chuqurchadan chiqib ketdi. Ikkinchi ajabzot esa uchta soqqasini mo‘ljalga tushirolmadi. Fozilbek chuqurchaga tushmay, yig‘ilganlar oyog‘i ostiga dumalab kelgan soqqaga qaradi-yu ... ularning tilla yong‘oq ekanini ko‘rdi”...

Oddiy xalq oilasini boqish uchun ne zahmatlar chekayotgan, bozor vayron bo‘lib, qancha muammolar qalashib yotgan bir paytda nafsi sichqonday bolalab yotgan ajabzotlarning ahvoli shunday edi. Ularning el dardi bilan sariq chaqalik ham ishi yo‘q, boyliklari ham keraksiz kayf-u safolar uchun sovrilyapti. Asardagi Fayoz to‘y qilish uchun guruch topolmasdan ruhi sinib, Mahkam cho‘t yarimjon bo‘lib yuribdi-yu “Ajabzotlar” “Muallaq so‘ri”da o‘tirib tilla yong‘oq o‘ynasa-yaa... Naqadar achinarli hol. Kibr zabtiga olib xalqdan uzoqlashgan, bosar-tusarini bilmay “uchib yurgan” kimsalar aks ettirilgan bu holat hammaga tanish va og‘riqlidir.

Yuqoridagi “Soqqa tashlash” bolalar o‘yini ham xalq ishonib qarayotgan, umid qilayotgan, katta kuch deb bilgan Choyxona ahlining oddiy ko‘ngilxushlik uchun qimmatli vaqtini besamar sarflayotganiga ishoradir. Fitratning “Abulfayzxon” fojiasi ham xuddi shunday xon ishongan a’yonlarning taxta(shaxmat) o‘ynashi bilan boshlanadi yoki Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanidagi ertaning umidi bo‘lgan talabalar oltinga teng vaqtini keraksiz o‘yin-kulgilar uchun sarflaydi.

Mana shunday ahvolimiz bor ekan “Bozor” romanida ko‘rsatilgan ichimizdan chiqqan “na olmaxonga, na kalamushga, na tulkiga o‘xshaydigan turqi sovuqdan-sovuq” nojins maxluqlar boshimizdan so‘lagini oqizib, xuddi odamga o‘xshab qiqirqiqir kulishdan charchamaydi.

**Xolida MUSURMONOVA**

## YOSHLIK ILHOMI

## Ustoz



*Ustoz, jon-u dilimsiz,*
*Eng chiroyli gulimsiz.*
*Sizsiz holimiz nochor,*
*Saboq, ta'lim, ilmsiz.*

*Haddan oshamiz ba'zan,*
*Og'ritamiz boshingiz.*
*Kechirasiz, suyasiz,*
*Chimirmasdan qoshingiz.*

*Umringiz bo'lsin uzoq,*
*Shogirdlardan shu tilak.*
*Siz bizga do'st-u o'rtoq,*
*Besh baho qo'ying ko'proq.*

**Nozima JUMAMURODOVA,**
**Yakkasaroy tumanidagi 319-maktabning**
**5-sinf o'quvchisi**

## Vatan



*Men buyuk, hur Vatan farzandi,*
*Dilimda orzular keng chaman.*
*Ardoqlab serquyosh o'lkamni,*
*Tuprog'in ko'zimga surtaman.*

*O'qiyman, yuksalar fitratim,*
*Ilmdan kuch olar jur'atim.*
*El-yurtim iqboli yo'lida,*
*Fidodir bor kuch-u quvvatim.*

*Yor bo'lgin sharaf-u shonlarga,*
*Dovrug'ing dunyoga taralsin.*
*Har o'g'il-qizingdan daholar,*
*Olimlar, fozillar yaralsin.*

**Nozli BEKMURODOVA,**
**Yakkasaroy tumanidagi 319-maktabning**
**9-sinf o'quvchisi**

## Qish

*Quvnoq kayfiyat bilan,*
*Kirib keldi kumush qish.*
*Musaffo, toza osmon,*
*"Bu qish sovuq bo'larmish"...*

*Ammo buning aksidir,*
*Quyosh charaqlab turar.*
*Osmon ko'm-ko'k, chiroyli,*
*Odamlar quvnoq yurar.*

*Salom senga, kumush qish,*
*Qoringdan ham berib tur.*
*Qorbobolar yasaylik,*
*Pag'a-pag'a yog'ib tur.*

**Charos BEKNAZAROVA,**
**Bekobod shahridagi 6-maktabning**
**8-"A" sinf o'quvchisi**

# Piyolacha

*(Ertak)*



***Qadim zamonda emas, hozirgi zamonda qaysar piyolacha bor ekan. Odamlar uning ichiga qaynoq choy to'ldirib, aka-ukalari bilan ko'rishtirib ichisharkan. Bu holat piyolachaga hech yoqmas ekan. Onasi choynakka har kuni xarxasha qilgani qilgan ekan.***

— Meni aybim nima o'zi? Har daqiqada ustimga qaynoq choy ag'darishadi. Terlab ketadi, bag'ri shammadan sarg'ayadi, deyishmaydi. Jonimga tegdi ularning bu qilig'i! – debdi jahl bilan piyolacha.

— Chinnicham, bu bizning qismatimiz. Ko'rib turibsan. Aka-ukalaringga ham choy quyishyapti-ku. Lekin ular hayotidan norozi emas, – deb tushuntiribdi choynak.

— Heee, yashashingizdan o'rgildim, – deb o'jarlik bilan so'zida davom etibdi piyolacha. — Men ularga o'xshagan ahmoq emasman. Men doim ichim zilol suvga, shirin sharbatga to'la bo'lishini orzu qilganman. Menga bunaqa hayotning keragi yo'q.

— Lekin chinnicham...

— Lekin-pekini yo'q, – deb uydan qochib ketibdi piyolacha.

Piyolacha ko'cha sang'ib, o'g'ri mushukka duch kelibdi. Mushuk piyolachani tutib olib, yaxshilab ko'zdan kechirib, "Sut o'g'irlab ichishga zo'r kosacha ekan", deb uyasiga olib ketibdi. Tun oralagach piyolachani sherik qilib ovga chiqibdi. Bir sutchining oshxonasida tunni o'tkazib, qaymog'ini yeb, qatig'ini ichib, suzma xaltasini teshib, ustiga-ustak piyolachada sutini olib qochibdi. Kunduzi esa o'g'irlagan sutini "Yashash mana shunday bo'ladi", deb mazza qilib ichibdi. Piyolachani tagigacha yalab, suvga chaymasdan uyquni uribdi.

Piyolacha uxlayotgan mushukka qarab:

— Heee, yashashingdan o'rgildim! Odamdan, onamdan qochib, senga tutildimmi hali? – deb qochib qolibdi.

Piyolacha yo'lda ketayotsa, daydi kalamush yurgan ekan. Kalamush piyolachani ko'rib, uning oldiga kelibdi. U yoq, bu yog'ini ushlab, "Qishga xo'rak g'amlashga ajoyib topilma", deb iniga olib ketibdi. Kun bo'yi iniga o'g'irlab kelgan don, pishloq, achigan ovqat qoldiqlarini piyolachaga solibdi. So'ngra yana yemish izlashga chiqib ketibdi. Kalamush inidan chiqishi bilan piyolacha u tomon qarab:

— Heee, yashashingdan o'rgildim! Odamdan, onamdan, mushukdan qochib, senga tutildimmi hali? – deb ichidagi aynigan ovqatlarni to'kib yuboribdi. O'zi esa darrov sakrab-sakrab kalamush inidan qochib qolibdi.



Yurib ketayotsa, ko'chada bir gala bolakaylar chuvillashib o'ynab yurgan emish. Ulardan biri piyolachani ushlab olib, "Qaranglar! "Mehmoncha" o'yinimiz uchun mitti piyolacha", deb do'stlariga qiyqiribdi. Bolalar unga qum, loy solib, "ziyofat" qilishibdi. Shunda birdan piyolachaning ko'zi o'zi yashagan eski xonadonga tushibdi. U ichida bolalarga qarata:

— Heee, o'rgildim senlardan! Odamdan, onamdan, mushukdan, kalamushdan qochib, sen churvaqalarga tutildimmi hali? Undan ko'ra ustimga qaynoq choy ag'darishgani ming marta yaxshi edi, – deb endi uyiga intilib qochmoqchi bo'lganda bir qizaloq qo'liga olib, "Mehmonjonlar, ketmay turing! Men hozir xamir qorib, non pishirib beraman", deya so'ylabdi. Piyolachaning qum va loydan to'lgan ichiga suv solib, "Ana, xamirimiz tayyor!" deb mehmonjonlar oldiga yurib kelayotganda loyqa qo'lidan sirg'alib tushib ketibdi. Azbaroyi, piyolacha zarb bilan yerga qo'nganidan chil-chil sinibdi.

**Azim AXTAMOV**

**E'LON**

Hidoyatova Shahzoda Axmad qiziga Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 70-umumiy o'rta ta'lim maktabi tomonidan berilgan UM № 0727888 raqamli attestat yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS:
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR:
Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIHLAR:
Shahribonu RAHMATOVA
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-155
Adadi – 705
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.00

1 2 3 4 5 6